

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING QIYOSIY TADQIQOTI

Sulaymonov Qurbanali
FarDU t.f.n dotsent
Madaminova Parvinaxon Bahodir qizi
FarDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Morfologik modellar so'z paradigmasi, so'z formalari va so'z formalarining vertikal o'zgarishida o'z ifodasini topadi sintaktik modellar esa so'zlarning o'zaro birikib, konstruksiyalar hosil qilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ot so'z turkumining qiyosiy tadqiqi haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: morfologik modellar, ot so'z turkumi, grammatika, predmeti, sintaktik belgi, qo'shma ot, birikma.

Аннотация: Морфологические модели выражаются в парадигмах слов, словоформах и вертикальном изменении словоформ, а синтаксические модели характеризуются объединением слов в конструкции. Также в этой статье мы поговорим о сравнительном изучении существительных в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: морфологические модели, именная группа, грамматика, подлежащее, синтактический признак, сложное существительное, соединения.

Anotation: Morphological models are expressed in word paradigms, word forms and vertical change of word forms, and syntactic models are characterized by combining words into constructions. Also in this article we will compare studying of nouns in English and Uzbek.

Key words: morphological patterns, noun phrase, grammar, subject, syntactic feature, compound noun, conjunction.

So'zlar bir-biridan ma'no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladilar. Ba'zi so'zlar mustaqil ma'no ifodalay olsa, ayrimlari boshqa so'zlar bilan birligida ma'lum grammatik ma'no ifodalashi mumkin. Bunday so'zlar leksik ma'no bildirmaydi va mustaqil qo'llana olmaydi. Mustaqil so'zlar esa gapning qurilishi uchun asos bo'ladi. Ular gapning ma'lum bo'lagi vazifasida kelib, ham mustaqil leksik tushuncha, ham grammatik ma'no ifodalaydi hamda gapning to'liq mazmunini kashf etishda muhim rol o'ynab, ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. Demak, so'zlarning gapda qanday gap bo'lagi bo'lib kelishi, qanday so'zlar bilan aloqaga kira olishi ularning ma'nolariga va grammatik shakllariga bog'liq bo'lgan hodisadir. Shuning uchun so'zlar har uch belgini (semantik, morfologik va sintaktik belgilari) nazarda tutgan holda turkumlarga ajratiladi. Bu belgilar hamma so'z turkumlarida bir xil darajada emas, albatta. Ba'zi so'zlar uchun morfologik belgi yetakchi rol o'ynasa (masalan, ot, fe'l), ba'zilarida esa sintaktik belgi yetakchi rol o'ynaydi (masalan, sifat, ravish va yordamchi so'zlar)¹. Sifat –predmetning rangi, hajmi, shakli, mazasi,

xarakteri, psixik holati, o'rin yoki vaqtga munosabati kabi belgilarni anglatadi. Masalan, qizil, katta, shirin, baland, yomon, sho'x, ertalabki kabiladir. Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi o'zaro bog'liq bo'limgan tillar sohasida tadqiqot olib borish edi. J.Buranov o'z qo'llanmasida ta'kidlaganidek: "Ushbu tizimning rivojlanishi ittifoq respublikalarida qiyosiy tilshunoslik bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ilmiy darajasini oshirishga, o'quv jarayonini takomillashtirishga va respublikaning bir qancha respublikalari uchun yagona darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishga xizmat qiladi." Yuqoridagi fan bo'yicha oliy o'quv yurtlari o'rganiladigan ma'lum bir soha bo'lib, bu shubhasiz ijobiy omil bo'ladi". Keng ma'noda predmet ma'nosini ifodalash otning leksik xususiyatidir. Predmetlik ma'nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabi), er va osmonga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, tog', tosh, daryo kabi), kundalik turmushga oid narsalarning nomi (tuz, non, choynak, qatiq kabi), o'simliklarning nomi (paxta, sholi, jo'xori, beda kabi), voqeа-hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomi (to'y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash kabi), o'rin va vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik kabi), shuningdek atab qo'yilgan shaxs va predmet nomlari (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «O'qituvchi» nashriyoti kabi) ifoda etadi.

Har bir tilda uning lug'at boyligi, qanday bo`lishidan qat'iy nazar so`zlar ma'lum modellarga bo`linadi va ular orqali nutq jarayonida ishlatiladi. Bu esa Grammatik modellarning mustahkamligini, qat'yligini va ularning til sistemasini to`la-to`kis aks ettira olishini to`la isbotlaydi. Ingliz va o'zbek tili grammatikasini o'rganishda morfologiya so'z turkumlari, ularning anglatadigan ma'nolari, yasalishi, Grammatik kategoriyalari va gapdagи vazifalarini o'rganish alohida ahami ahamiyatga atga ega. bizga ma'lumki, so'z turkumlari asosan ikki turga bo`linadi:

1. Mustaqil so'z turkumlari
2. Yordamchi so'z turkumlari

Mustaqil so'z turkumlarivoqea, hodisa, harakat va holatni anglatuvchi predmetlarga munosabat bildirishga xizmat qiladi. Ot predmetlik tushunchasini ifodalovchi mustaqil so'z turkumidir. Ingliz tilida otlik kategoriysi artikl va predloglar bilan qo'llaniladi. Ot turkumiga: tirik mavjudotlarni (a boy, an animal, a bird, etc), ob'ektiv borliqdagi predmetning, voqeа va hodisalami (city, tree, stone, an apple, an earth), shuningdek, fikrda predmet deb tasavvur qilinadigan turli harakat yoki holat, hodisa, xususiyat va munosabat tushunchalarni (resting, peace, happy) emas, balki sifat, holat va harakatlarni bildiruvchi abstract tushunchalar ham tushiniladi. Ot turkumidagi so`zlar predmet tushunchasini son, egalik va kelishik kategoriyalari bilan birga ifodalaydi. Ot gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, ing ot qismi, hol va undalma, izohlovchi vazifalarida keladi. qo'shma ot kesimining of (The noun can fulfil the functions of the subject, object, attributes and predicatives in the sentence). Otni boshqa so'z turkumlaridan farqlovchi tashqi structural va leksiko Grammatik (morphologik, sintaktik va leksiko - Grammatik) belgilari mavjud. Morfologik belgilar (Morphological determiners) otning Grammatik kategoriya formalarini yasovchi

morfema va allomorfemalardan iborat bo`lib, sanaladigan otlarning ko'plik formasini yasovchi-(e)s, -en va otlarda qaratqich kelishigini yasovchi tutuq belgili shular jumlasidandir. Ikkala tilda ham sintaktik belgilari (syntactic determiners) ot boshqa so'zlar bilan munosabtga kirishganda namoyon bo'luvchi va otni aniqlab keluvchi artikl, sifat, sifatdosh, son, ko`rsatish guman va egalik olmoshlaridir. Sintaktik usul bilan ot yasash. Iki yoki undan ortiq so'zlarni i negizni biror yo`sinda biriktirib, bir predmetni anglatuvchi ot yasashni sintaktik yo'l bilan ot yasalisht deyiladi. (bluebell -qo'ng'iroqcha, breakstone-shag'al) Sintaktik usul bilan qo'shma, tartibli, qisqartma va juft otlar yasaladi. Qo'shma ot. Bir bosh urg'u bilan aytilib, ikki yoki undan ortiq so'zlar yoki Bir bosh urg'u bilan aytilib, ikki yoki undan ortiq so'zlar yoki o`zaklarning ma`no va grammatik jihatdan o'zaro bir biriga o`zaro qo'shilish yo`li bilan tuzilgan otlar qo'shma otlardir. ularning tashkiliy qismlari orasidagi sintaktik aloqa kuchsizlangan bo`ladi. Qo'shma ot sostavidagi so'zlarning birinchisi ko`pincha ikkinchisini aniqlab keladi. Bunda:

- a) birinchi qismga ikkinchi qismning qarashli ekanligi, unga xosligi, uning bir turi ekanligi ifodalananadi: sunglasses-ko'zoynak, lampglasses-lampa shisha, shoemaker-etikdo'z
- b) ikkinchidan, qo'shma ot qismlari quyidagi grammatik munosabatda birikadi. Aniqlovchi aniqlanmish tipida. Ikki ot-o`zakning o'zaro birikishidan yoki sifat va otning birikishidan hosil bo'ladi:

oq tepa - white hill

qora suv-black water oq qush-white bird

Hamma tillarda bo'lgani kabi ingliz tilida ham qisqartma otlar mavjud. Toshkent Davlat Universiteti - Tashkent State University. Yuqoridagi so'z birikmalarini ma'lum darajada qisman qisqartirishda nutqda ixchamlikka erishiladi. Shu maqsadda qisqartirilgan otlar qisqartma otlar yoki abbreviatura deyiladi: United States of America – USA

Otlarning semantik klassifikasiysi. (Semantic classification of nouns) Hozigi zamon ingliz tilida ot semantik jihatdan klassifikasiya qilinganda Jonli va jonsiz, yakkalik va umumiylig prinsipiga asoslanadi. Jonli va jonsizlik prinsipiga ko'ra ot ikkiga jonli predmetli va jonsiz predmetli otlarga ajratiladi. Shaxs nomini ifodalovchi otlar who? so'rog'iga, boshqa tirik mavjudotlarni ifodalovchi otlar what? so'rog iga javob bo'ladi. Jonsiz predmetlar (nouns denoting lifeless things): book, bread, tree, thought. Jonli predmetlar (nouns denouting living beings): boy, girl, John, bird, etc Shaxs nomini ifodalovchi (nouns expressing persons): father, mother, sister, dalovchi (nouns ex brother, etc). Yakka predmet, ma'lum shaxs, maxsus joy yoki hodisa nomlarini anglatuvchi ot atoqli ot deyiladi. Atoqli ot ayrim predmet yoki shaxsga atab qo'yilgan maxsus nomlardir. Ingliz tilida atoqli otlar har doim bosh harf bilan yoziladi. Yakkalik va umumiyligning asosiy leksik ko`rsatkichi va grammatik ko`rsatkich sifatida artikllar, ko'plik qo'shimchali va boshqalarni keltirish mumkin. Atoqli otlar bir turdag'i predmetlarning bittasini, balki ma'lum boshqalarga o'xshamaydigan predmet nomini ifodalaydi. Ot shu ma'no xususiyati jihatidan ikki turga bo'linadi: turdosh otlar va atoqli otlar. Kitob, daftar, tinchlik – turdosh otlar; Samarqand,

Akmal, «Qora ko'zlar» (roman), «Fan» (nashriyot) – atoqli otlar. Ot har bir tilda o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega, ya'ni:

1. Ot son kategoriyasiga ega, ya'ni predmet anglatuvchi so'zlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi. Otlar birlik sonda yakka bir predmetni ifodalaydi: daraxt – yakka bir predmet, birlik son shaklida kelgan; daraxtlar – noaniq ko'plik son shaklida kelgan;

2. ot egalik kategoriyasiga ega, ya'ni predmetning uch shaxsdan biriga (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga shaxsga) taalluqlilagini, qarashlilagini, maksubligini bildiradi: mening daftaram, sening ukang, uning quvonchi kabi;

3. ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma'nosiga ega bo'lib, bu kelishik shakllari otning boshqa so'zlarga bo'lgan sintaktik munosabatini ifodalaydi (Barnoning kitobi, kitobni o'qidi, kitobdan foydalandi kabi);

4. bosh kelishik shaklidagi ot gapda asosan, ega va kesim, ba'zan sifatlovchi-aniqlovchi, izohlovchi kabi gap bo'laklari vazifasida, shuningdek, undalma, nominativ gap tarzida keladi. Masalan: O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat (I.Karimov). Olim kishi o'zining ilmi va odobiga tayanadi. (Oz-oz o'r ganib dono bo'lur). Seni ulug'layman, ey ona xalqim (A.O.) Subhidam. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi (P.Q.);

5. Qaratqich kelishigidagi ot qaratuvchi-aniqlovchi vazifasida keladi: Sen Pushkinding sevgan malagi (A.O.);

6. tushum, jo'naliш, o'r in-payt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar to'ldiruvchi, hol, ba'zan kesim vazifasini bajaradi. Masalan: Bayramni munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi (S.A.). Bog' chada daraxtlar oltin rang bilan tovlandardi (O.). Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda. (Maqol).

Demak, otning qanday sintaktik vazifada kelishi uning qaysi kelishik shaklida kelishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, ot so'z turkumi so'z yasalish xususiyatiga ega. Ot so'z turkumi faol so'z yasalish usullari morfologik, sintaktik va faqat ot so'z turkumi yasaydigan abbreviatsiya usuli bilan yasaladi: xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, sevinch (morfologik usul bilan); belbog', ko'zoynak, baxt-saodat, ota-onas (sintaktik usul); DAN, ToshDPU (abbreviatsiya usuli bilan) kabi. Ot o'ziga xos sintaktik belgilarga ham ega:

1. ot ot bilan bog'lanadi. Bosh va qaratqich kelishigidagi otlar ana shunday xususiyatga ega: paxta g'ururimiz, farzandning baxti kabi;

2. ot fe'l bilan bog'lanadi, ya'ni tushum, jo'naliш, o'r in-payt, chiqish kelishigidagi otlar fe'l bilan birikadi: xatni o'qidi, xatga qaradi, xatda yozilgan, xatdan ko'chirdi kabi;

3. ot ba'zan sifat, ravish, son, olmosh, taqlid va undov so'zlar bilan ham birika oladi: osmon tiniq, uylar ko'p, beshta bola, maqsadim shu, dupur-dupur ovoz, holiga voy kabi;

Mavzu turdosh va qarindosh bo'limgan tillarning tipologik qiyosiy muammolari bo'lgani uchun turkiy tillarda so'zlashuvchilardan ingliz tilini o'rganish oson emasligini bilamiz. Chunki bu ikki tilda so'z yasalishi bir-biriga o'xshamaydi. Masalan, ismingiz nima? Agar bu gapni ingliz tilidan o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak: Nima Senning isming? «Turklar tilini tushunish» kitobi 1312 yilda arab tilida yozilgan bolib, kirish, lugat va grammatika bolimlaridan tashkil topgan. Muallif asarning kirish qismida til sistemasining

tuzilish elementlari - tashkil qiluvchilari sifatida lugat tarkibini, morfologiya va sintaksisni korsatadilar. Yani u alohida olingan sozlarning manolarini, sozlarning turlanishi va tuslanishining qoidalarini hamda soz birikmalarini qayd etadi. Asarning lugat qismida turkiy sozlar arab alfaviti tartibida joylashtirilgan bolib, unda 3000 ga yaqin soz mavjud. Asarning morfologiya qismida soz turkumlari haqida fikr yuritiladi. Bunda ot, fel va harf (yordamchi sozlar va affikslar) alohida qayd etiladi. Turkiy tillarning soz yasash, soz ozgartirish va forma yasash kategoriyalari haqida malumot beriladi.

Asarda turkiy tildagi sozlar arab tili grammatikasi asosida uch turkumga ot (ismun), fel (felun) va yordamchi sozlar (harfun)ga ajratiladi. Sifat, son va olmoshlar arab tili ananasiga muvofiq ot turkumi tarkibiga kiritiladi. Ot mano jihatdan atoqli, turdosh, jamlovchi va kichraytish otlariga ajratiladi. Otlarning grammatik kategoriyalari: son, egalik va kelishik kategoriyalari haqida yetarli darajada malumot beriladi. Otlarning son jihatdan birlik va kop-likka ega ekanligiga etibor qaratiladi. Qiyoslang: at at-lar; epchi epchilar (ayol - ayollar). Otlarda egalik shakllari birlik va koplik korinishiga, tuzilishiga ega ekanligi aytildi. Qiyoslang: bashim, kozim-bashimiz, kozimiz; bashing, kozing - bashingiz, kozingiz; bashi, kozi - bashlari, ko'zлari. Asarda beshta kelishik kategoriysi qayd etiladi. Bular: 1. Tushum kelishigi. 2. Jonalish kelishigi (-ga, -ga, -qa,-ka,-a, ust). 3. orin-payt kelishigi (-da). 4. Chiqish kelishigi (-tan,-dan). 5. Birgalik kelishigi (bila).

Dastlab misol tariqasida ot so'z turkumini ingliz tilidagi quyidagi so'zlar orqali ifodalashimiz mumkin: a thing - narsa nomlari (book - kitob), a person - shaxslar (Umida - Umida ismi), an animal - hayvonlar, insects - hashorotlar (a dog - it , fly -pashsha), a place - joy nomlari (Tashkent - Toshkent shahri), fikr yoki harakatga tegishli bo'lgan so'zlar jamlanmasi. Ot so'z turkumi kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ingliz tilida otlar 2 ta katta guruhga bo'linadi: °countable nouns (sanaladigan otlar) °uncountable nouns (sanalmaydigan otlar) °Countable nouns (sanaldigan otlar) - sanab bo'ladigan, birlik yoki ko'plik shakllarda kela oladigan otlar kiradi. Bunda ot birlik shaklda kelsa, uning oldidan a/an yoki one so'zlarini qo'yamiz. Agar ko'plik shaklda kelsa, so'z oldidan many yoki few kabi ko'plikni ifodalovchi so'zlar kelishi mumkin. Misol uchun: a book - kitob , an elephant - fil bu so'zlar countable singular nouns (sanaladigan birlikdagi otlarga kiradi.) many books - ko'p kitoblar, few apples - bir nechta olmalar countable plural nouns (sanaladigan ko'plikdagi otlarga kiradi.) Uncountable nouns (sanalmaydigan otlar) - sanab bo'lmaydigan, faqatgina ma'lum o'Ichov birliklari bilan o'Ichanadigan otlar kiradi. Ushbu otlar oldidan some, a piece of, a bottle of kabi so'zlar keladi. Misol uchun: some money - biroz pul, a piece of cheese - pishloq bo'lagi. (sanalmaydigan otlarga kiradi.) Noun (ot)larning plural (ko'plik) hamda singular (birlik) shakllari turli qo'shimchalar hamda so'zdagi o'zgarishlar bilan farqlanadi. Singular nouns (birlik) dagi otlar oldidan a / an artikllari yoki one so'zi kelib ularning bitta ekanligini bildiradi. Misol uchun: a girl - (bitta) qiz an octopus - (bitta) sakkizyoq one book – (bitta) kitob. Plural nouns (ko'plik) dagi otlarni esa quyidagi qo'shimchalar qo'shish bilan yasashimiz mumkin: - s, es, ies. Ushbu qo'shimchalar so'z oxirida qo'shilib ko'plik ma'nosini anglatadi. Misol uchun: a girl - girls an apple - apples

puppy - puppies (- y bilan tugagan so'zlarga ies qo'shimchasi qo'shiladi, - y harfi esa tushirib qoldiriladi.) a potato - potatoes (-y bilan tugagan so'zlarga es qo'shimchasi qo'shiladi). Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki qiyoslangan har ikkala tilda ham ot so'z turkumida birikmalari alohida ajralib turadi. Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.–Toshkent: Fan, 1985.
2. Saydaliev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. - N. 2004.
3. Sayidrahimova N., Qobulova U. Lingvokulturologiya – tilshunoslikning alohida sohasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2015.
4. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O'zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
5. Malyavin D.V., Anikina V.N., Latushkina M.S. Gazeta bilan ishlash O'rta maktabda ingliz tili. M., 1981.